

**“INFINBANK ning VISA kartalari bilan to‘lovni amalga oshiring va
“MORE” ga 2 ta chipta egasiga aylaning” aksiyasi
QOIDALARI**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Qoidalar “InFinBank” AJ tomonidan tashkil etilgan “INFINBANK’ning VISA kartalari bilan to‘lovni amalga oshiring va “MORE” ga 2 ta chipta egasiga aylaning” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) o‘tkazish tartibi, shartlari va qoidalarini belgilaydi.

1.2. Aksiya muddati: 2025 yil 16 iyundan 2025 yil 21 iyulgacha.

1.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida "InfinBANK" AJ bank tizimida o‘tkaziladi.

1.4. Ushbu Qoidalarda quyidagi ta’riflar va atamalar qo‘llaniladi:

Bank – Aksiyaning tashkilotchisi bo‘lgan «Invest Finance Bank» Aksiyadorlik jamiyati;

Ishtirokchi – 18 yoshdan katta bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqorosi bo‘lgan jismoniy shaxs, InfinBank Visa debet kartalari (Classic, Gold, Platinum, Virtual) egasi bo‘lib, ushbu debet kartalardan onlayn va oflayn tarzda tovar va xizmatlar uchun to‘lov qilgan shaxs (naqd pul chiqarish va pul o‘tkazmalari holatlari bundan mustasno);

G‘olib – mazkur Qoidalarga muvofiq aksiyada ishtirok etgan barcha ishtirokchilar orasidan g‘alaba qozongan ishtirokchi;

Sovrin – “MORE” suv majmuasiga ikkita chipta;

To‘lov – karta orqali onlayn (internet orqali karta ma’lumotlarini kiritish yo‘li bilan) yoki oflayn (terminal orqali jismoniy karta bilan) to‘lov;

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, harbiy xizmatchilar uchun harbiy guvohnoma, ID-karta, xorijga chiqish uchun biometrik pasport, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi;

Shaxsga doir ma’lumotlar – ishtirokchiga tegishli yoki uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beruvchi elektron, qog‘ozda yoki boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan ma’lumotlar.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Ishtirokchilar — 18 yoshdan katta bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan, InfinBank VISA debet kartalarining Classic, Gold, Platinum, Virtual toifalariga ega bo‘lgan va aksiya davomida ushbu Qoidalarining 3-bo‘limida belgilangan ishtirok shartlariga muvofiq oflayn yoki onlayn tarzda tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov qilgan jismoniy shaxslar (bunda, naqd pul chiqarish va pul o‘tkazmalari hisobga olinmaydi).

2.2. Aksiyada Bank xodimlari ishtirok eta olmaydi.

2.3. Aksiyada ishtirok etish — ishtirokchilarning ushbu Qoidalarga to‘liq rozilik bildirishini anglatadi.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun bir martalik to‘lov summasi kamida 20 AQSh dollariga teng yoki undan katta bo‘lishi kerak, bu esa o‘yinlarda ishtirok etish uchun bitta imkoniyatga teng.

Agar to'lov boshqa valyutada amalga oshirilgan bo'lsa, tranzaksiya summasi to'lov kuni Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblanadi.

3.2. Har bir to'lov bitta g'alaba imkoniyatini taqdim etadi.

3.4. 7 nafar g'olib bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli efirda aksiyada ishtirok etgan ishtirokchilar tanlovi asosida bir martalik, tasodifiy tarzda aniqlanadi.

3.5. Agar ishtirokchi ushbu Qoidalardagi talablarni bajarmasa, u aksiyada ishtirok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtirokchi ushbu Qoidalarga muvofiq barcha zarur harakatlarni aksiya davomiyligi mobaynida, sovg'ani olishni tasdiqlovchi hujjatlar imzolanguncha bajarishi shart.

4. Mukofot fondi

4.1. Sovrinlar — "MORE" suv majmuasiga tashrif buyurish uchun 14 ta vaucher (bitta vaucher narxi – 400 000 so'm).

4.2. Bitta sovrin 2 (ikki) vaucherga teng.

4.3. G'olib sovrinni pul mukofotiga almashtirishni talab qilish huquqiga ega emas.

5. Aksiyani o'tkazish va sovrinlarni o'ynash tartibi

5.1. Sovrinlar o'yinida ushbu Qoidalarga rioya qilgan shaxslar ishtirok etadilar.

5.2. 7 nafar g'olib 2025 yil 25 iyul kuni bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli tanlov asosida tasodifiy tarzda aniqlanadi.

5.3. Bank aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalar o'tkazmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, bahsli vaziyatlar yoki sovrinni taqdim etish hollari bundan mustasno.

5.4. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqini, o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) ish kuni oldin www.infinbank.com veb-saytiga o'zgartirishlar to'g'risida e'lon joylashtirish orqali o'zida saqlab qoladi. Bank sovrinlar ro'yxati va hajmini, shuningdek aksiya muddatini o'zgartirish yoki kengaytirishga haqli. Bank ishtirokchiga aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa harajatlarni qoplab bermaydi.

5.5. Bank yutuqdan foydalanishning butun muddati davomida yutuq sohibining sog'lig'iga (hayotiga), uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.6. Ushbu aksiya davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar yaxshi niyat va o'zaro munozara asosida Bank va Ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo bank joylashgan joydagi sudda ko'rib chiqiladi.

5.7. Bank, maxsus Randomus dasturidan yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o'xshash dasturlardan foydalangan holda, 7 (yetti) asosiy g'olibni va agar Asosiy g'olib sovrindan voz kechgan va/yoki ushbu Qoidalarda belgilangan muddatda sovrinni olmagan holatlar uchun, qo'shimcha 7 (yetti) ishtirokchini zaxira nomzod sifatida aniqlaydi.

5.8. Asosiy g'oliblardan biri sovrindan bosh tortgan va/yoki 10 (o'n) ish kuni ichida sovrinni olmagan taqdirda, sovrin maxsus Randomus dasturida yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etadigan shunga o'xshash dasturlarda birinchi bo'lib aniqlangan zaxira nomzodga o'tkaziladi. Birinchi zaxiraga nomzod sovrindan bosh tortgan yoki mukofotni o'z vaqtida olmagan taqdirda, mukofot ikkinchi zaxira nomzodga o'tkaziladi.

5.9. Agar nomzod mukofotdan bosh tortsa va/yoki sovrinni o'z vaqtida olmagan bo'lsa, Bank komissiyasi ushbu bo'limning tegishli bandlarida nazarda tutilgan tartibda g'olibni muqobil aniqlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

5.10. Agar G'olibni muqobil ravishda aniqlash natijasida, yutuqni rad etish va/yoki sovrin o'z vaqtida olinmasa, Bank o'z xohishiga ko'ra sovrindan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.11. G'oliblar nomi Bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli efirda e'lon qilinadi.

5.12. Ishtirokchining aksiya shartlariga rioya qilmasligi oqibatlari uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

6. Sovrinlarni olish tartibi va shartlari

6.1 G'olib, bank sovrin yutganlik to'g'risida jonli ravishda xabar bergan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi bilan Bankka tashrif buyurish majburiyatini oladi.

6.2. Sovrin G'olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolangan qabul qilish dalolatnomasi asosida G'olibga topshiriladi.

6.3. Bankning sovrinni g'olibga o'tkazish bo'yicha majburiyatlari u ishtirokchiga topshirilgan va qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.4. Qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab sovringa egalik huquqi g'olibga o'tadi.

6.5. Mukofot taqdimoti jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda tantanali ommaviy tadbir sifatida tashkil etilishi mumkin.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiyani o'tkazish shartlari, to'xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to'g'risida xabardor qilish tartibi

7.1. Aksiya ishtirokchilari Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida, Bankning mobil ilovasida, ommaviy axborot vositalarida va kontekstli reklamada e'lonlar joylashtirish orqali aksiya shartlari va qoidalaridan xabardor qilinadi.

7.2. Aksiya haqidagi batafsil ma'lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning rasmiy korporativ veb-sayti: www.infinbank.com "Yangiliklar" bo'limida joylashtiriladi.

7.3. Aksiya haqida batafsil ma'lumotni Bankning ishonch telefoni (+998 71) 202-50-60 va 1214 qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali ham olish mumkin.

7.4. Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan, uning shartlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Bankning rasmiy korporativ veb-sayti: www.infinbank.com, "Yangiliklar" bo'limida tegishli voqea sodir bo'lishidan 10 (o'n) ish kuni oldin joylashtiriladi.

7.5. Ishtirokchi shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Bank o'z faoliyatini amalga oshirishi, Bankning ushbu Qoidalar shartlarini bajarishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini (maxsus shaxsiy ma'lumotlardan tashqari) Bank tomonidan qayta ishlash va ulardan foydalanishga muddatsiz rozilik beradi.

7.6. Aksiya g'oliblari ushbu qoidalarga muvofiq sovrinni qabul qilib olishlari, ishtirokchilar o'z ism-shariflari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa shaxsiy ma'lumotlardan (maxsus shaxsiy ma'lumotlardan tashqari) Bank tomonidan ularga hech qanday to'lov to'lanmasdan reklama maqsadlarida foydalanishga rozilik berishlarini anglatadi.